

RAHMONQULOV XOJI-AKBAR RAHMONQULONQULOVICHNING FUQAROLIK HUQUQIGA QO'SHGAN HISSASI

Murodxonov Muhammadnur

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti, 2-kurs

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquq sohasiga katta hissa qo'shgan huquqshunos olim Ramonqulov Xoji-Akbar Rahmonqulovich haqida yoritilgan. Hozirgi kundagi zamonaviy fuqarolik huquqini akademik Rahmonqulov X.R. bilangina tasavvur qilish mumkin. Yetuk huquqshunosning fuqarolik huquqidagi majburiyat huquqi bo'limini alohida shakllantirib, unga sayqal berganliklari hozirga qadar o'z o'rnini mustahkamlab kelmoqda.

Kalit so'zlar: Majburiyat huquqi, huquq, akademik, qonun, normativ-huquqiy hujjat, fuqarolik huquq, xususiy huquq.

KIRISH

Yangi O'zbekiston siyosiy tizimini modernizatsiya qilish va yangilash sharoitida jamiyatning barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish muammolari yanada ahamiyatlidir. Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish hamda yuksaltirish bilan bog'liq islohotlar yangi O'zbekiston siyosiy-huquqiy tizimini yanada mustahkamlanib borayotganidan, respublikamizda demokratik, huquqiy, dunyoviy davlat qurish jarayoni jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Farmonining qabul qilinishi O'zbekistonda bu boradagi muammolarning nechog'lik dolzarbligini ko'rsatadi.

Fuqarolik huquqining eng muhim kichik sohalaridan biri majburiyat huquqi hisoblanadi. Majburiyat deb shunday fuqarolik huquqiy munosabatga aytiladiki, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa – qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Majburiyat huquqi – mol-mulkni topshirish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish yoki pul to'lash yoki muayyan harakatdan o'zini tiyib turish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik-huquqiy normalar yig'indisidir¹.

ASOSIY QISM

Yuridik adabiyotlarda majburiyat atamasi bilan birgalikda burch atamasi borasida ham so'z yuritiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida huquq va burchlar borasida so'z boradi. Ushbu atamalar teng ma'noli bo'lib, fuqarolik huquqiy munosabatlarda har doim majburiyat atamasi qo'llaniladi. Majburiyat subyektlari, obyektlari, uning mazmuni majburiyatning eng muhim elementi hisoblanadi. Majburiyat subyektlari bu muayyan huquqlarga ega bo'lgan va zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklangan shaxslardir. Odatda har bir majburiyatda kamida ikki taraf ishtirok etadi. Muayyan harakat qilinishini va muayyan harakatdan tiyilishni talab qilish ga haqli bo'lgan taraf – kreditor (haqdor) deb ataladi. Muayyan harakatni qilishga yoki harakat qilishdan saqlanishga majbur bo'lgan taraf esa – qarzdor (burchdor) shaxs bo'lib hisoblanadi.

Majburiyatlarni bajarish deb, qarzdor tomonidan kreditor talabiga muvofiq, muayyan bir harakatning qilinishi yoki harakatdan saqlanish tushuniladi. Qarzdorning majburiyatni bajarishi – kreditorga ashyoni topshirish, ma'lum ishni bajarish, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash, asossiz olingan mulkni qaytarish muayyan harakatdan saqlanganlik kabilardan iborat. Majburiyatlar FKning 236-moddasida aytilganidek, majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmagan taqdirda esa ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak. Bunda taraflarning har biri o'z majburiyatlarini ancha tejamli bajarishi, ikkinchi tomonga uning o'z majburiyatlarini bajarishda har tomonlama yordam ko'rsatishi lozim. Majburiyatlar davlat hujjatlari va shartnomalardan kelib chiqqan bo'lsa, ularda ko'rsatilgan talab va shartlarga muvofiq bajarilishi kerak. Agar qonun hujjatlarida majburiyatni bajarish sharti ko'rsatilmagan bo'lsa, majburiyatlar o'zaro kelishib qo'yiladigan talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi zarur. Majburiyatni bajarishda har ikki tomon xo'jalik aloqalarining rivojlanishini ko'zlab, tejamlilik bilan va o'zaro hamkorlikda zarur harakatlarni qilishlari talab etiladi. Majburiyatning bajarilishini ta'minlash qarzdor tomonidan olingan va uning zimmasida bo'lgan vazifani bajarishga majbur qiladigan chora bo'lib hisoblanadi. Majburiyat bajarilishini ta'minlashning tabiati shu bilan izohlanadiki, qarzdor zimmasida bo'lgan majburiyat belgilangan muddatda bajarilmasa yoki boshqacha tarzda buzilsa, kreditorida ziyonlarni

¹ Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet.

undirishga bo'lgan huquqdan tashqari majburiyatning obyektni tashkil etgan harakatni qilishga qarzdorni majbur qiladigan boshqa mulkiy ta'sir choralarini qo'shimcha ravishda tatbiq etilishini talab qilish huquqi vujudga keladi.

Akademik Rahmonqulov X.R.ning ta'biriga ko'ra, qo'shimcha majburiyatlar asosiy majburiyatning bajarilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi usullardan tashkil topadi. Ular qarzdorni asosiy majburiyatni bajarishga majbur qiluvchi va u bajarilmagan taqdirda kreditorning talablarini qanoatlantiruvchi huquqiy vosita (chora)lardan hisoblanadi².

Majburiyatlarning bajarilishi har xil usul bilan ta'minlanadi. Mazkur usullar yo qonun bilan belgilanishi yoki shartnomaga asoslangan bo'lishi mumkin. Fuqarolik qonun hujjatlarida (FK 259-modda) majburiyatning bajarilishini ta'minlash neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ta'minlanishi mumkin. Umumiy qilib aytganda fuqarolik qonunchiligiga ko'ra majburiyat huquqini taminlashning bir qancha usullari mavjud bo'lsa, ushbu usullar barchasi qarzdorning o'z majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarmasligi natijasida huquqiy oqibat olib keladi. Qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini o'z ixtiyori bilan bajarishi uchun esa uning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuqori saviyada bo'lishi talab etiladi. Ushbu o'rinda huquqiy ong va huquqiy madaniyatga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Huquqiy ong, bu avvalo, insonlarning mavjud huquqiy tizim, qonunchilik va boshqa (amaldagi va idealdagi) huquqiy hodisalarga nisbatan munosabatini ifodalovchi tasavvurlar, bilimlar, axborotlar va his-tuyg'ular yig'indisidir³.

Boshqacha qilib aytadiganbo'lsak, huquqiy ong jamiyat a'zolarining huquq haqidagi, ijtimoiy hayotda real mavjud bo'ladigan huquqiy hodisalar haqidagi qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, baholashlari, ruhiy munosabatlari majmuidir. Shu nuqtayi nazardan huquqiy ongning tabiati va mohiyatiga yondashiladigan bo'lsa, uning mazmunida mustaqillik yillarida jamiyatda qaror topayotgan demokratik huquqiy qadriyatlar va tamoyillar, huquqiy tizimdagi islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlari xususidagi fuqarolarning qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, ruhiy kechinmalari majmui aks etadi.

XULOSA

Majburiyat huquqini ta'minlashda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rniga keladigan bo'lsak, fuqarolar o'zlari o'z hatti-harakatlari natijasida bo'yniga olgan majburiyatlari yuzasidan o'zlari javobgar bo'lishlari, ushbu hatti-harakatining huquqiy oqibatlarini tushunib yetishlari – muhim masaladir. Chunki har bir shaxs

² Раҳмонқулов Х. Мажбурият ҳуқуқи (умумий қоидалар). –Т.: ТДЮИ, 2005 й. -81 б.

³ Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b

shartnomaviy yoki qonuniy majburiyatni bo‘yniga oldimi, u o‘z majburiyati yuzasidan javobgar bo‘lishi kerakligi ongli ravishda his etishi lozim. Shu sababli ham jamiyatda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati qanchalik mukammal bo‘lsa, mazkur jamiyatni majburiyatlarni ta‘minlash ham qulay bo‘ladi. Majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash fuqarolik muomalasida ishtirok etuvchi qarzdorning o‘z zimmasiga olgan yoki unga yuklatilgan vazifani bajarishga qaratilgan huquqiy profilaktik choradir. Bunday profilaktik choraning asosiy maqsadi qarzdorni asosiy majburiyat bo‘yicha majburiyatini bajarishga qaratilgan. Ya‘ni, asosiy majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda kreditorning huquq va manfaatlari qo‘shimcha ta‘minot usullari asosida ta‘minlanadi. Bunday usullar har qanday holda majburiyat huquqiy munosabatlarda kreditorning tavakkalchilik xavfini kamaytirish barobarida uni erkin va faol harakat qilishga undaydi. Shu bilan akademik Rahmonqulov X.R.ning fanga qo‘shgan hissalarini alohida ta‘kidlab o‘tishimiz zarur hisoblanadi. Akademik tomonidan olib borilgan izlanishlarga ko‘ra, fuqarolik huquqning kichik bir tarkibi majburiyat huquqining naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib berganliklari bilan huquq sohasining tarixida muhim iz qoldirib ketganligini ko‘rishimiz mumkin.

MANBALAR

1. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet.
2. Раҳмонқулов Х. Мажбурият ҳуқуқи (умумий қоидалар). –Т.: ТДЮИ, 2005й. - 81 б.
3. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b
4. Younas, A. (2021). Multinational Enterprises in Global Market Economy. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(7), 137-143.